
“CHEK JALAER” MAHALLA FUQAROLAR YIG'ININING YANGI BINOSI FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Mustaqillik ob'ektlari

□ Rishton tumanidagi 71 ta mahalla fuqarolari yig'ini binolari zamonaviy ko'rinishga ega bo'lib bormoqda. Bu esa mahallalarning har bir sohada rivojlanishini kafolatlashga bir omil bo'ladi. Buguning talabiga aylangan zamonamizga mos va hos, shart-sharotlarni yaratish to'g'ri ma'noda suv va havo kabidir.

📍 Bugun, 28 avgust kuni Vatanimiz mustaqilligini 33 yilligi munosabati bilan 4-sektor hududidagi “Chek Jalaer” mahalla fuqarolar yig'inining yangi binosi foydalanishga topshirildi.

□ Ushbu tadbirda tuman hokimi, sektor rahbarlari, tuman hokimi o'rinbosarlari, tuman Xalq qabulxonasi mudiri, Mahallalar uyushmasi bo'limi xodimlari, ommaviy axborot vositalari vakillari hamda mahalla va jamoat faollari, nuroniylar ishtirok etdilar.

???? Tadbirni tuman hokimi B. Xoliqov ochib berib, o'z so'zida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi hamda muhtaram Prezidentimiz tomonidan mahalla tizimiga berilayotgan e'tibor, ushbu tizimda faoliyat olib borayotgan mutasaddilar, fuqarolar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar bilan birga ularning ham zimmasiga yuklatilayotgan mas'uliyat xususida alohida to'xtaldi.

□ Binoning ochilishi uchun nuroniy otaxonlar ishtirokida ramziy bog'ich qirqilib, tadbir ishtirokchilari bino ichkarisiga taklif etildi. Bu maskanda mahalla aholisi va ushbu mahalla binosida faoliyat ko'rsatuvchilar uchun barcha qulayliklar yaratilgan.

📍 Tadbir ishtirokchilari mahalla binolarida yaratilgan sharoitlar bilan tanishar ekanlar, qo'llarini duoga ochib, mahalla xalq bilan davlat o'rtasida ko'prik bo'lib, tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlashi, jamiyatimizning yuzi, vijdoniga aylanishi kerakligini aytib o'tdilar.

📍 “Chek Jalaer” mahalla fuqarolar yig'ini yangi binosi xomiylik mablag'lari evaziga qo'rib bitkazildi. Binoda mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va profilaktika inspektori uchun alohida xonalar qurildi. Har bir xodim uchun ajratilgan xonalar zamonaviy jihozlar bilan ta'minlandi.

□ Ma'lumot o'rnida shuni ta'kidlash joizki, mahallalar jamiyatda tinchlik-totuvlik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, oilalar jipsligini ta'minlash, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, joylarda tadbirkorlikni rivojlantirish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda eng muhim maskandir.

2024-08-28 14:56:38